Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 26-avgust, № 175 (9346) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AQSH KONGRESSI VAKILLAR PALATASI DELEGATSIYASINI QABUL QILDI



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Kongressi Vakillar palatasining kongressmenlar – Jeyson Smit, Greg Merfi, Ronni Jekson va Edvard Keysdan iborat delegatsiyasini qabul qildi.

Uchrashuv avvalida amerikalik qonun chiqaruvchilar O‘zbekiston Prezidenti va xalqini mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi bilan samimiy qutladilar.

O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash hamda parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ikki tomonlama munosabatlarda ijobiy sur’at kuzatilayotgani, siyosiy muloqot yuqori darajada ekani, aloqalar va o‘zaro tashriflar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Ikki mamlakat yetakchilari yaqinda bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqot chog‘ida strategik sheriklikni yanada kengaytirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab oldilar.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Joriy yil boshidan o‘zaro savdo hajmi 20 foizga oshdi. Energetika, muhim minerallar, transport, qishloq xo‘jaligi, raqamli texnologiyalar va sanoat sohalarida yirik loyihalarni boshlash va amalga oshirishni nazarda tutuvchi uch yillik Iqtisodiy hamkorlik dasturi izchil amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni qo‘llab-quvvatlashda, shuningdek, ikki mamlakat o‘rtasidagi konstruktiv va o‘zaro manfaatli muloqotni ilgari surishda AQSh Kongressining muhim o‘rni qayd etildi.

Hududlararo hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi. AQSh delegatsiyasi a’zolari vakillik qilayotgan Missuri, Shimoliy Karolina, Texas va Gavayi shtatlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni yanada rivojlantirish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga tayyorlik bildirildi.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida ishbilarmonlik missiyalarining o‘zaro tashriflarini tashkil etishga kelishib olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

MUSTAQILLIK BAYRAMIGA MUNOSIB TUHFA

Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida 25-avgust kuni mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan hududlarda yangi obyektlarni ishga tushirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda davlatimiz rahbari hududlardagi studiyalarga yig‘ilgan keng jamoatchilik vakillarini, ular orqali butun xalqimizni yaqinlashib kelayotgan ulug‘ bayram bilan tabrikladi.

Ortda qolgan o‘n yilda O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar yuz berdi. Tadbirkorlikka keng yo‘l ochilib, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqobatbardosh sanoat tarmoqlarini yaratish, chekka tuman va qishloqlar infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha ulkan ishlar bajarildi. Ta’lim, tibbiyot va madaniyat sohalariga e’tibor yangi bosqichga ko‘tarildi.

– So‘nggi o‘n yil mamlakatimiz tarixida yangi Uyg‘onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini qurish bosqichi sifatida abadiy muhrlandi, – dedi Prezidentimiz.

Bu davrda iqtisodiyotimiz hajmi 2,5 barobardan ziyod oshdi. Iqtisodiyot tarmoqlariga 160 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilinib, umumiy qiymati 76 milliard dollarlik 2 163 ta yirik sanoat loyihasi ishga tushirildi, qariyb 6 million nafar aholi doimiy ish o‘rni bilan ta’minlandi.

Bugun yurtimizda dunyoning yetakchi kompaniyalari, yirik investorlari va xalqaro moliya institutlari ishtirokida ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Investitsiyalar ko‘payishi bilan sanoatimiz qiyofasi ham tubdan o‘zgarmoqda.

– Biz xomashyo eksport qilgan davlatdan uni chuqur qayta ishlash zanjiri asosida tayyor mahsulotni jahon bozoriga olib chiqadigan iqtisodiyotga o‘tyapmiz. Eng muhimi, yangi korxonalar bilan birga zamonaviy texnologiyalar, yangi kasblar va yuqori malakali ish o‘rinlari ham paydo bo‘lmoqda, – dedi davlatimiz rahbari.

Joriy yilning o‘zida 1,7 milliard dollarlik 56 ta yirik zamonaviy sanoat va servis obyekti ish boshladi, 8,8 mingta yuqori daromadli ish o‘rni yaratildi.

Shuningdek, byudjetdan ajratilgan 46 trillion so‘m hisobidan 385 ta maktab, 113 ta bog‘cha, 81 ta shifoxona, 7,5 ming kilometr yo‘l, 3,2 ming kilometr ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlari qurildi, ta’mirlandi va rekonstruksiya qilindi.

Bugungi marosimda mamlakatimizning barcha hududida umumiy qiymati qariyb 50 trillion so‘m bo‘lgan 72 ta yirik sanoat va servis loyihasi hamda 91 ta ijtimoiy soha obyekti foydalanishga topshirildi. Ularning ochilishi Mustaqillik bayramiga munosib tuhfa bo‘ldi.

Yangi loyihalar hisobiga 15 mingta ish o‘rni yaratiladi, byudjetga yiliga qo‘shimcha 1 trillion so‘m tushum tushishi ta’minlanadi.

Investitsiya loyihalari energetika, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati, metallurgiya, avtomobilsozlik, elektrotexnika, qurilish materiallari, tog‘-kon, to‘qimachilik va yengil sanoat kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab olgan.

Jumladan, Sirdaryo viloyatida 1 573 megavattli elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 200 megavattli shamol elektr stansiyasi va 100 megavattli energiya saqlash tizimi ishga tushirildi. Navoiy viloyatidagi yangi energetika loyihalari yiliga 657 million kilovatt-soat elektr energiyasini ishlab chiqaradi.

Mazkur loyihalar orasida mamlakatimizning eksport salohiyatini sezilarli oshiradigan quvvatlar ham bor. Andijon, Namangan va Jizzax viloyatlarida ishga tushirilgan to‘qimachilik, trikotaj va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari millionlab dollarlik eksportni ta’minlaydi. Samarqand va Toshkent viloyatlarida barpo etilgan yangi metallurgiya korxonalari ham sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va import o‘rnini bosishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz bugungi loyihalarni faqat investitsiya va eksport ko‘rsatkichlari bilan o‘lchash to‘g‘ri bo‘lmasligini ta’kidladi. Yangi o‘quv yili arafasida ijtimoiy sohada ham ko‘plab zamonaviy obyektlar foydalanishga topshirilmoqda. Ular orasida 36 ta bolalar bog‘chasi, 43 ta maktab, 7 ta oliy ta’lim muassasasi va 3 ta shifoxona bor.

Yangi Toshkent hududida jahon standartlari asosida 10 gektar maydonda barpo etilgan Yangi O‘zbekiston universitetining zamonaviy majmuasi shular jumlasidandir. Bu yerda 7 ming nafar talaba tahsil olishi uchun sharoit yaratilgan.

Oliy ta’lim muassasasida Garvard universiteti bilan hamkorlikda Rektorlar maktabi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Oksford universiteti bilan birgalikda davlat xizmatchilarining malakasini oshirish bo‘yicha “Ta’lim xabi” tashkil etiladi. 1-oktabrdan Sun’iy intellekt instituti ish boshlaydi.

Shuningdek, 30 ming kvadrat metr maydonga ega besh qavatli yangi Milliy kutubxona eng zamonaviy texnikalar bilan jihozlangan. U bir vaqtning o‘zida 1,5 ming nafar kitobxonga xizmat ko‘rsata oladi. Bu yerda 28 dan ziyod o‘quv xonasi va zallar, turli sig‘imdagi konferensiya zallari tashkil etilgan, 200 mingdan ortiq kitoblar jamlangan.

Qarshi shahrida 400 milliard so‘mlik Iqtisodiyot va pedagogika universitetining zamonaviy bino hamda inshootlari barpo etildi. Bu yerda 3 ming nafar talaba tahsil oladi, 700 nafar aholi daromadli ish bilan ta’minlanadi.

Farg‘ona viloyatidagi yangi zamonaviy tibbiyot muassasasida esa yiliga 60 ming nafar bemorni davolash va 30 ming nafar ayolni skriningdan o‘tkazish imkoniyati yaratildi.

Davlatimiz rahbari yangi obyektlarni barpo etishda ishtirok etgan investor va tadbirkorlar mehnatini yuksak baholadi.

– Siz kiritayotgan har bir investitsiya O‘zbekiston kelajagining poydevorini mustahkamlaydi. Siz yaratayotgan har bir ish o‘rni oilalar farovonligiga xizmat qiladi. Siz ishlab chiqarayotgan har bir mahsulot mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Siz eksport qilayotgan har bir tovar O‘zbekistonning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi, – dedi Prezidentimiz.

Ushbu loyihalarni barpo etishda fidoyilik ko‘rsatgan quruvchilar, muhandis va loyihachilar, tadbirkor hamda investorlarga minnatdorlik bildirildi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari ramziy tugmani bosdi va 72 ta yirik investitsiya loyihasi hamda 91 ta ijtimoiy soha obyekti foydalanishga topshirildi.

O‘zA.

STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIGA KO‘TARILGAN MUNOSABATLAR



O‘zbekiston va AQSh munosabatlarini yanada mustahkamlashda parlamentlararo muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining parlamentlararo guruhi va AQSh Kongressi o‘rtasidagi hamkorlik, shuningdek, AQSh Kongressidagi “O‘zbekiston bo‘yicha kokus” faoliyati siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarda ikki tomonlama aloqalarni tizimli rivojlantirish, parlament diplomatiyasi orqali dolzarb masalalarni muhokama etish va ularga yechim topishning samarali mexanizmlaridan biriga aylangan.

Uchrashuv

Ikkala davlat parlamentlari o‘rtasida aloqalar ham jadal rivojlanmoqda. Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Amerika Qo‘shma Shtatlari Kongressi Vakillar palatasining kongressmenlari – Jeyson Smit, Greg Merfi, Ronni Jekson va Edvard Keysdan iborat delegatsiya bilan uchrashdi.

Unda O‘zbekiston va AQSh Prezidentlari – Shavkat Mirziyoyev hamda Donald Trampning siyosiy irodasi tufayli mamlakatlar o‘rtasidagi ochiq muloqot va o‘zaro ishonchga asoslangan ko‘p qirrali hamkorlik izchil va jadal rivojlanib borayotgani, ikki tomonlama munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgani ta’kidlandi.

Muloqotda kelgusida parlamentlararo, jumladan, parlament qo‘mitalari o‘rtasidagi aloqalarni izchil rivojlantirish, O‘zbekiston hududlari hamda AQSh shtatlari o‘rtasida, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘rtasida yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari ko‘rib chiqildi.

Suhbat davomida ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish istiqbollariga ham e’tibor qaratildi. Xususan, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, o‘zaro manfaatli investitsiyaviy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, mehnat munosabatlari, gender tenglik va ushbu yo‘nalishlarda tajriba almashish hamda hamkorlikni kengaytirish masalalari yuzasidan ham takliflar bildirildi.

“Xalq so‘zi”.

Mustaqilligimizning 35 yilligiga

Nuriddin ISMOILOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Spikeri

MILLIY PARLAMENT – PREZIDENT SIYOSIY ISLOHOTLARINING FAOL ISHTIROKCHISI

Yurtimiz hayotidagi qutlug‘ sana – Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi bayrami arafasida turibmiz. Bu yil mazkur tarixiy kun yangi O‘zbekistonning bugungi ulkan salohiyati va jahon maydonidagi nufuziga muvofiq **“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”** degan bosh g‘oya asosida keng nishonlanmoqda.

Tarix – ulug‘ murabbiy. U davlatlar va xalqlar asrlar davomida bosib o‘tgan murakkab yo‘lni xolis baholaydi. Shunday tarixiy burilishlar bo‘ladiki, ular vaqt bilan emas, balki inson taqdiri va millat kelajagini belgilab bergan azmu shijoat, qat’iy siyosiy iroda, oqilona qarorlar hamda xalq manfaati yo‘lida amalga oshirilgan islohotlar bilan o‘lchanadi.

Keyingi o‘n yilda Prezidentimiz boshchiligida mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar nafaqat davlat boshqaruvi, balki xalqimiz tafakkurini, hayotimiz falsafasini, qonun ustuvorligiga bo‘lgan qarashlarni hamda eng asosiysi, inson qadriga munosabatni tubdan o‘zgartirdi.

Davlatimiz rahbarining xalqni sevish va Vatanga sidqidildan xizmat qilishdek oliy saodatga yo‘g‘rilgan shaxsiy namunasi yangi O‘zbekiston ruhiga aylandi.

Davlatchilik tariximiz shundan dalolat beradiki, tamaddunning eng yorqin davrlari yuksak siyosiy iroda va tarixiy mas’uliyat egalari bo‘lgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug‘bek singari buyuk ajdodlarimiz shaxsiyati bilan chambarchas bog‘liq. Bugun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko‘zlagan strategik siyosati, qat’iy siyosiy irodasi va tinimsiz amaliy sa’y-harakatlari tufayli erishilgan xalq birligi, umummilliy hamjihatlik hamda Vatan taqdiri uchun mushtarak mas’uliyat Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining sifat jihatdan mutlaqo yangi bosqichidagi dadil qadamlarini ta’minlab bermoqda.

Prezidentimiz boshchiligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida keyingi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘sib bormoqda. Oxirgi o‘n yillikka nazar soladigan bo‘lsak, mamlakatimizda valyuta bozori liberallashtirilib, tadbirkorlik va xorijiy investitsiyalar uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Iqtisodiyotimiz hajmi 50 milliard dollardan qariyb 3 barobar oshdi, mamlakatimiz o‘rta daromadli davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin egalladi. Elektron davlat xizmatlari kengayib, ijtimoiy himoya tizimi yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu o‘zgarishlar natijalari xalqimizning kundalik hayoti va turmush tarzida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Birgina 2025-yilda iqtisodiyotga 43 mlrd. dollar investitsiya jalb etildi, qurilgan uy-joylar soni esa 238 mingta xonadonga yetdi.

Prezidentimizning nufuzli xalqaro minbarlardan ilgari surgan global va mintaqaviy ahamiyatga ega tashabbuslari jahon hamjamiyati tomonidan keng e’tirof etilmoqda.

Eng muhimi, bu islohotlarning markazida inson qadri, uning farovonligi va munosib hayot kechirishi uchun sharoit yaratish maqsadi turibdi. Yangi O‘zbekistonning so‘nggi o‘n yilligi milliy tariximizdagi shunday noyob davrdir.

Shu ma’noda, keyingi yillardagi islohotlar mohiyatini chuqur anglash uchun parlament tizimida kechgan o‘zgarishlarga ham e’tibor qaratish muhim.

Ta’kidlash joizki, Prezidentimizning 2017-yil 12-iyulda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar vakillari bilan bo‘lib o‘tgan muloqoti mamlakatimiz huquqiy siyosatida, milliy parlament va mahalliy Kengashlar hamda siyosiy partiyalar faoliyatida tub burilish davrini boshlab berdi. Shu kundan e’tiboran barcha vakillik organlari mutlaqo yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ydi. Parlament, tom ma’noda, o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarildi.

Ilgari parlament deganda, asosan, qonun loyihalarini ko‘rib chiqadigan va tasdiqlaydigan institut tushunilgan bo‘lsa, bugun u mutlaqo boshqa mazmunga ega bo‘ldi. Milliy parlamentimiz xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonch ko‘prigi, islohotlarning faol ishtirokchisi, ijro hokimiyati ustidan ta’sirchan nazorat olib boradigan, jamiyatdagi eng dolzarb masalalar ochiq muhokama qilinadigan milliy minbar, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, chinakam “Xalq uyi”ga aylandi.

Davlatimiz rahbarining milliy parlamentarizm taraqqiyotiga qaratgan doimiy e’tibori ushbu tarixiy transformatsiyaning bosh omili va harakatlantiruvchi kuchi bo‘ldi.

Prezident va parlament muloqotiningnoyob modeli

Yangi O‘zbekistonda Prezident va parlament o‘rtasidagi mutlaqo yangi munosabatlar tizimi mustahkam siyosiy va aniq strategik yondashuv asosida shakllandi. Bu jarayon 2016-yil 8-sentabrda Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi chiqishdan boshlandi. O‘sha yilning 14-dekabrida esa Prezidentning lavozimga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosim aynan parlament minbarida bo‘lib o‘tdi. Unda davlatimiz rahbari o‘zining siyosiy dasturini xalq vakillari huzurida e’lon qildi. Bu teran ramziy ma’noga ega tanlov bo‘lib, yangi siyosiy yo‘l xalq vakilligi institutining bevosita ishtiroki bilan boshlanayotganining ifodasi edi.

Ana shu ilk qadamlardan boshlab Prezident va parlament o‘rtasida muntazam, tizimli va mazmunli muloqot an’anasi qaror topdi. Davlatimiz rahbari Oliy Majlis bilan turli formatlarda – qo‘shma majlislar, siyosiy partiyalar rahbarlari va vakillari bilan uchrashuvlar, Murojaatnomalar, yangi shakllangan parlament bilan dasturiy muloqotlar orqali doimiy aloqada bo‘ldi.

➡ 2

MILLIY PARLAMENT – PREZIDENT SIYOSIY ISLOHOTLARINING FAOL ISHTIROKCHISI

◄1 Prezident va parlament munosabatlarining O‘zbekistonda shakllangan modeli demokratik davlatchilik talablariga to‘la mos amalga oshirildi. Davlat rahbari vakillik organini davlat boshqaruvi samaradorligining muhim omili, islohotlarning ishonchli hamkori va xalq bilan muloqotning bosh vositasi deb bildi.

Aynan shuning uchun ham Prezidentimizning tashabbusi bilan parlamentning Hukumat a’zolarini ma’qullashdan Davlat byudjeti nazoratigacha, “hukumat soati”dan davlat dasturi bajarilishining borishini ko‘rib chiqishgacha bo‘lgan vakolatlari kengaytirib borildi. Dunyo tajribasida hokimiyat vakolatlarini ixtiyoriy ravishda vakillik instituti foydasiga kengaytirib borish hodisasi kamdan-kam uchraydi. Bu o‘z xalqiga va o‘zi tanlagan yo‘lning to‘g‘riligiga ishongan Yetakchigagina xos bo‘lgan strategik tanlovdir.

O‘z navbatida, keyingi o‘n yillikdagi islohotlarning huquqiy poydevorini yaratishda parlament bosh siyosiy-huquqiy maydon vazifasini o‘tadi. Prezident g‘oyalari aynan parlament minbari orqali qonunlarga, qonunlar esa xalq hayotidagi o‘zgarishlarga aylandi.

Murojaatnoma – xalq ishonchiga asoslangan muloqotning yangi modeli

Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnoma yo‘llash instituti milliy parlamentarizm taraqqiyotida muhim fenomenga aylandi va mamlakatimiz siyosiy hayotiga mutlaqo yangi mazmun olib kirdi, davlat rahbarining xalq bilan muloqotining yangi modeli sifatida tan olindi.

Murojaatnoma nafaqat parlament, balki xalqimizga ham yo‘llana boshlangani ushbu institutning qamrovi mamlakatimizdagi islohotlarga hamohang tarzda kengayganini hamda har bir fuqaroning mamlakat taraqqiyotiga nisbatan daxldorligini oshirishga xizmat qilayotganini ko‘rsatmoqda.

Ilgari mamlakat oldida turgan eng dolzarb vazifalar, asosan, davlat idoralari doirasida muhokama qilingan bo‘lsa, endi bu jarayon xalqimiz ishtirokida, uning keng qo‘llab-quvvatlovi asosida kechadigan bo‘ldi.

Shu bois Murojaatnoma xalqimiz intiqlik bilan kutadigan eng muhim ijtimoiy-siyosiy voqelikka aylandi. Unda nafaqat o‘tgan yil sarhisob qilinadi, balki mamlakatning ertangi kuni uchun ustuvor vazifalar belgilab beriladi. Ya’ni har bir Murojaatnoma Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining o‘ziga xos “Yo‘l xaritasi”ga aylanib, o‘z davrining savoliga javob bermoqda. Parlament kun tartibini ham yangi mazmun bilan boyitmoqda.

Konstitutsiyaviy islohotlarda parlamentning tarixiy ishtiroki

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar milliy davlatchiligimiz tarixida mutlaqo yangi sahifa ochdi.

Davlatimiz rahbari ushbu muhim siyosiy jarayonning bosh tashabbuskori bo‘ldi, uning barcha bosqichida faol ishtirok etdi hamda Asosiy Qonunimizda mamlakatimiz uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, xalqimiz orzu-intilishlari va yangi davr maqsadlarini to‘laqonli aks ettirish bo‘yicha muhim takliflar hamda tashabbuslarni ilgari surdi. Bunda ikki prinsipial masala – Konstitutsiyaviy qonun loyihasini umumxalq muhokamasiga qo‘yish hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiyani referendum orqali qabul qilish tashabbusini ko‘rsatdi.

Ushbu tarixiy jarayonda parlament ham alohida o‘rin tutdi. Xususan, Qonunchilik palatasidagi ikki yetakchi siyosiy kuch – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyalari tomonidan konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish tashabbusi ilgari surildi.

Shuningdek, Oliy Majlis palatalari Kengashlarining Qo‘shma qarori bilan Konstitutsiyaviy komissiya tuzilgani, konstitutsiyaviy islohotlar parlament, siyosiy partiyalar, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, olimlar, ekspertlar va keng jamoatchilik ishtirok etgan umummilliy jarayon sifatida kechishiga xizmat qildi.

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida Qonunchilik palatasiga kiritildi.

Konstitutsiyaviy islohotlarda parlament ishtirokining uchta jihatini alohida ta’kidlash mumkin. Birinchidan, parlament konstitutsiyaviy yangilanishga qaratilgan siyosiy va huquqiy tashabbus ishtirokchisi bo‘ldi. Ikkinchidan, parlament xalq, davlat organlari, siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati, ilm-fan va ekspertlar hamjamiyati o‘rtasida ochiq muloqot maydonini shakllantirdi. Uchinchidan, parlament Konstitutsiyani o‘zi qabul qilish vakolatiga ega bo‘la turib, hal qiluvchi qarorni xalqning bevosita xohish-irodasiga havola etdi.

Shu tariqa yangi tahrirdagi Konstitutsiya xalq irodasi, Prezidentimizning siyosiy tashabbuslari, qat’iy irodasi va parlamentning tarixiy mas’uliyati uyg‘unligida yaratildi.

Qonun ijodkorligi: xalqchillik va hayotiylik prinsiplari ustuvor

Qonun nafaqat jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi hujjat, balki inson huquqlari va erkinliklarining kafolati, davlat siyosatining huquqiy ifodasi, xalqning orzu-intilishlarini amaliy natijaga aylantiradigan ta’sirchan vositadir.

Shu ma’noda, davlatimiz rahbari o‘z faoliyatining dastlabki yillarida huquq hayotdan ortda qolmasligi kerakligi to‘g‘risidagi qoida asosida shakllangan milliy huquq tizimini Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida mazmunan yangi darajaga olib chiqdi.

Prezidentimizning 2018-yil 8-avgustdagi farmoni bilan tasdiqlangan **Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish Konsepsiyasi** qonun ijodkorligi sohasidagi tub islohotlar yo‘lidagi dastlabki muhim qadam sifatida yangi davrni boshlab berdi.

Bu davrning o‘ziga xos xususiyatlari qator jihatlarda namoyon bo‘ladi. Xususan, qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihalarining shakli hamda ularni rasmiylashtirish tartibi takomillashtirildi. Ularning mazmun-mohiyatini aholiga sodda tilda tushuntirishga qaratilgan muhim qoidalar belgilandi.

Bugungi kunda parlament tomonidan 2025 – 2029-yillarga mo‘ljallangan qonun ijodkorligi dasturi amalga oshirilmoqda. Ushbu dastur, avvalo, qonun ijodkorligida strategik rejalashtirish madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan.

Dasturning ijrosi dastlabki natijalarni bermoqda: 2025-yil yakunlariga ko‘ra, dastur doirasida O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksi, “Shaharsozlik renovatsiyasi to‘g‘risida”, “Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to‘g‘risida”, “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”, “Qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Strategik rejalashtirish va tizimli yondashuv samarasi qonun ijodkorligi ko‘lamining sezilarli darajada kengayishida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. 2015-yilda 19 ta qonun qabul qilinib, Senatga yuborilgan bo‘lsa, 2025-yilda mazkur ko‘rsatkich 133 taga yetib, yetti barobar o‘sdi.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi tomonidan qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamasini o‘tkazishni tashkil etish tartibi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi. Quyi palataning rasmiy veb-saytida “Jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgan qonun loyihalari” maxsus rukni tashkil etilib, unda qonun loyihalari aholi muhokamasi uchun joylashtirilmoqda. Bundan tashqari, deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyati davomida ko‘rib chiqilayotgan qonun loyihalari bo‘yicha siyosiy partiyalar bilan birgalikda joylarda muhokamalar tashkil etish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Shu tariqa “Qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma’noda xalq bo‘lishi shart” degan tamoyil bugungi kunda qonun ijodkorligi amaliyotida to‘laqonli tarzda ro‘yobga chiqmoqda.

Bugun norma ijodkorligi nafaqat parlament va davlat organlarining ishi, balki saylovchilar, fuqarolik jamiyati institutlari, ekspertlar, olimlar, yoshlar va tadbirkorlik subyektlari, umuman, har bir fuqaro ishtirok etadigan ochiq jarayonga aylandi. Endilikda milliy qonunchilik hayot nafasi bilan yashaydigan, xalq ehtiyojini anglaydigan, islohotlarni oldinga boshlaydigan va millat kelajagini belgilaydigan yuksak huquqiy tafakkurning hamda davlatchilik madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. Aynan Prezidentimiz tomonidan shakllantirilgan yangi qonun ijodkorligi madaniyatida nafaqat huquqiy aniqlik va institutsional mantiq, balki amaliy natija ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Parlamentning qonun loyihalarini ko‘rib chiqish va qabul qilish amaliyotiga joriy etilgan demokratik tartib-qoidalarda ham ushbu yondashuvni yaqqol ko‘rish mumkin.

Barcha sohada amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar natijasida fuqarolarning huquqiy ehtiyojlari yildan-yilga kengaymoqda. Ana shundan kelib chiqib, milliy qonunchiligimizda ilgari mavjud bo‘lmagan ko‘plab yangi qonunlar qabul qilindi. Xususan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonunlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, “Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risida” hamda “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunlar, “Aholi bandligi to‘g‘risida”, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”, “Transport to‘g‘risida”gi kabi hajman yirik va butun bir sohani tartibga soladigan yaxlit qonunlar qabul qilindi.

Deputatlar qonunchilik tashabbusi huquqidan samarali foydalanib kelmoqda. Xususan, 2015 – 2025-yillarda deputatlar tomonidan jami 182 ta qonun loyihasi quyi palataga kiritildi. Bu barcha tashabbuskorlar tomonidan kiritilgan qonun loyihalarining 13,8 foizini tashkil etadi.

Deputatlar tashabbusi bilan kiritilayotgan qonun loyihalari aynan saylovchilar ko‘targan masalalar, fuqarolarning murojaatlariga asosan va saylov okruglaridagi uchrashuvlar davomida aniqlangan muammolarga huquqiy yechim topishga qaratilgani bilan alohida qimmatlidir. Zero, deputat tashabbusi saylovchi ovozining qonunga aylanishi demakdir.

Xalqchil qonunlar – islohotlar ortga qaytmasligining ishonchli kafolati

Prezidentimizning “qonun ijodkorligi jarayoni, avvalo, jamiyatimizdagi dolzarb muammolar yechimiga, xalqimizning og‘irini yengil qilishga qaratilishi kerak” degan konseptual g‘oyasi huquqiy islohotlarning bosh mezoniga aylandi.

Aynan xalqchil va hayotiy qonunlar tufayli fuqarolar o‘z huquqlarining ishonchli himoyasini, tadbirkorlar o‘z faoliyatining barqaror kafolatlarini, jamiyatimiz esa adolatli taraqqiyotning mustahkam zamini yaratilayotganini his etmoqda.

Jumladan, aynan Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonun bilan yer uchastkasi va unda qurilgan binolar hamda inshootlarga bo‘lgan huquqni, shuningdek, yakka tartibdagi uy-joy qurgan holda o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqini e’tirof etishning aniq tartibi belgilandi.

Ta’kidlash joizki, odamlarning tilida “yer amnistiyasi” deb nom olgan ushbu qonunni xalqimiz intiqlik bilan kutayotgandi. Chunki qonun odamlar orasida eng ko‘p muhokama qilingan hayotiy masalalardan biriga yechim berdi. Bu xalqimizning uzoq yillar davomida to‘planib kelgan hayotiy muammosi, o‘z uy-joyiga qonuniy hujjat ololmagan millionlab oilalarning dardi edi.

Ushbu qonun davlatimiz rahbarining inson manfaati ustuvorligini ta’minlash va xalqning hayotiy muammolariga adolatli huquqiy yechim topishga qaratilgan siyosatining amaliy ifodasi bo‘ldi.

Yana bir misol. “Tomorqa xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi xalqimiz kutgan huquqiy yechimlardan biri bo‘ldi. Chunki shu vaqtga qadar aholining shaxsiy yer uchastkalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, tomorqadan foydalanishga oid munosabatlar asosan tarqoq qonunosti hujjatlari asosida tartibga solib kelingan edi.

Tomorqa odamlarimiz uchun qo‘shimcha daromad, rizq-ro‘z va to‘kis dasturxon, aholi bandligini ta’minlash deganidir. Qolaversa, ushbu qonun davlatimiz rahbarining aholi farovonligini oshirishga qaratilgan siyosatining amaliy ifodasi bo‘ldi.

Parlament va jamiyat muloqotining yangicha huquqiy maydoni

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq saylov huquqiga ega, yuz ming nafardan kam bo‘lmagan fuqarolar, Senat, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) hamda Markaziy saylov komissiyasiga qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Qonunchilik palatasiga kiritish huquqi berildi. Bu parlament bilan jamiyat o‘rtasidagi muloqotning mutlaqo yangi huquqiy maydonini shakllantirdi.

O‘tgan davrda quyi palataga jami 10 ta qonunchilik taklifi kiritildi. Ularda fuqarolarning mehnatga oid huquqlari kafolatlarini kuchaytirish, jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash tartibini insonparvarlashtirish, siyosiy partiyalar faoliyatini takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati hamda parlament nazorati faoliyati asoslarini yanada mustahkamlash kabi jamiyat hayotining dolzarb masalalari qamrab olindi.

Fuqarolik jamiyati institutlari bilan muloqotni kuchaytirish, ularning parlament faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish maqsadida qo‘mitalar huzurida jamoatchilik kengashlari tuzildi. Ekspertlar, mutaxassislar va fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat ushbu kengashlar qonun loyihalarini muhokamadan o‘tkazishda, sohaga doir muammolarni aniqlashda faol ishtirok etib, qo‘mitalar ishiga yangicha mazmun-mohiyat olib kirmoqda.

Ilmiy hamjamiyat bilan hamkorlikning mustahkam institutsional asoslari yaratildi. Qonunchilik palatasi qo‘mitalari va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tahlil markazlari o‘rtasida aloqalar yo‘lga qo‘yilib, ular bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi. Bu orqali qonun loyihalarini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan xulosalar, sohaviy tadqiqotlar, tahliliy ma’lumotlar va ekspertlik salohiyatidan keng foydalanish uchun imkoniyat yaratildi.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi huzurida Parlament tadqiqotlari institutining tashkil etilishi qonunchilik faoliyatini ilmiy-tahliliy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning yana bir bo‘g‘iniga aylandi.

Parlament nazorati – islohotlar natijadorligining muhim omili

Yangi O‘zbekistonda parlament nazoratini amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlari shakllantirildi. Prezidentimiz parlament nazoratining yangi shakllarini taklif etib, bu nazoratni rasmiyatchilikdan natijadorlik sari yo‘naltirdi.

Ilgari, asosan, qonun qabul qiluvchi institut sifatida qaralgan milliy parlamentning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki kengayib, bugun u islohotlarning sifati hamda samaradorligini ta’minlash, joylarda aholini qiynayotgan masalalarga yechim topishda faol qatnashmoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining “Parlament nazorati – bu, avvalo, xalq nazorati, xalq so‘rovi”, degan konseptual g‘oyalari dasturilamal bo‘lmoqda.

Parlament nazoratining ta’sirchan shakllaridan biri “Hukumat soati” instituti 2018-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan amaliyotga kiritildi. “Hukumat soati”ning eng muhim xususiyati shundaki, parlament minbaridan yangrayotgan har bir savol ortida muayyan hududdagi muammo, saylovchining murojaati yoki aholini o‘ylantirayotgan masala turadi. O‘tgan davrda jami 67 ta “Hukumat soati” o‘tkazildi. Ushbu institut hukumat va xalq vakillari o‘rtasida muntazam, ochiq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot maydonini shakllantirdi.

Tegishli yilga mo‘ljallangan Davlat dasturi bajarilishining borishi to‘g‘risidagi hisobotni ko‘rib chiqish parlament nazoratining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘tgan davrda Qonunchilik palatasida Vazirlar Mahkamasining davlat dasturlari bajarilishi yuzasidan hisobotlari 23 marotaba ko‘rib chiqildi. Ushbu amaliyot Davlat dasturida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlashda parlament hamda hukumat o‘zaro hamkorligining samarali usuliga aylandi.

Ayni paytda parlament nazoratining mazkur shakli fuqarolarga deputatlik korpusi orqali Davlat dasturlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish imkonini bermoqda. Ya’ni xalq vakillari Hukumat hisobotini ko‘rib chiqish jarayonida, saylov okruglari va hududlardagi o‘rganishlar davomida aholi tomonidan ko‘tarilayotgan dolzarb masalalarni mutasaddilar oldiga qo‘ymoqda.

Parlament hamda deputat so‘rovi huquqiy tabiati jihatidan biri-biridan farq qilsa-da, ularni yagona maqsad – mansabdor shaxslarning mas’uliyatini oshirish va jamiyatdagi dolzarb masalalarga yechim topish vazifasi birlashtiradi.

Keyingi yillarda parlament so‘rovidan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2020 – 2024-yillarda mansabdor shaxslarga 72 ta parlament so‘rovi yuborildi. Vaholanki, 2015 – 2019-yillarda mazkur ko‘rsatkich bor-yo‘g‘i 28 tani tashkil etgan edi. Albatta, bunday o‘sish dinamikasi parlament so‘rovlari islohotlar natijadorligini oshirishda ta’sirchan vositaga aylanib borayotganini ifodalaydi.

Deputat so‘rovi parlament nazoratini amalga oshirishning tezkor va samarali usullaridan biri sanaladi. Prezidentimizning “deputatga bepisandlik – xalqqa bepisandlik” degan pozitsiyasi mazkur institutning mazmun-mohiyati va ahamiyatini yanada oshirdi. Jumladan, 2025-yilda va joriy yil birinchi yarim yilligida xalq noiblari tomonidan mansabdor shaxslarga jami 210 ta deputat so‘rovi yuborilgan. Bu deputatlar tomonidan saylov okruglarida o‘tkazilayotgan uchrashuvlar, joylarda olib borilayotgan o‘rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklarga mutasaddilar e’tiborini jalb etishga ustuvor ahamiyat qaratilayotganini ko‘rsatadi.

Xalq bilan muloqot: saylov okrugidan parlament minbariga

Deputat bilan saylovchi munosabatlari tubdan o‘zgardi. Ilgari parlament a’zolarining aholi bilan uchrashuvlari ko‘pincha muayyan masala yoki alohida murojaat doirasida o‘tkazilar edi. Endilikda esa saylovchi deputatni izlab borishi emas, xalq vakilining o‘zi fuqarolar huzuriga borishi ustuvor mezonga aylandi.

Deputatlar har oyning oxirgi haftasida saylov okruglariga chiqishi tizimli amaliyot sifatida yo‘lga qo‘yildi. Bu vaqtda xalq vakillari mahallalarga, xonadonlarga, tadbirkorlik subyektlariga, fermer xo‘jaliklariga, ta’lim va tibbiyot muassasalari hamda boshqa ijtimoiy soha obyektlariga borib, saylovchilar bilan yuzma-yuz muloqot qilmoqda.

Jumladan, 2025-yil va 2026-yilning birinchi yarmida xalq vakillari 23 mingdan ziyod xonadonlarga, 14 mingga yaqin ijtimoiy soha obyektlariga va mahallalarga bordi. Deputatlar tomonidan saylov okruglaridagi faoliyat davomida tashkil etilgan fuqarolar qabullarida 26,6 ming nafardan ortiq fuqarolar qamrab olindi.

Mazkur amaliyotning ahamiyati shundaki, deputat joyidagi vaziyatni odamlarning kundalik hayoti, fikr-mulohazalari va amaliy tajribasi orqali o‘rganadi.

Ta’kidlash joizki, 2024-yilgi parlament saylovlarida Qonunchilik palatasi deputatlari aralash – majoritar va proporsional tizim asosida shakllandi. Bu partiyalar ro‘yxati asosida saylangan deputatlarning elektorat bilan doimiy aloqasini ta’minlaydigan yangi mexanizmni yo‘lga qo‘yishni taqozo etdi.

Shu maqsadda yagona saylov okrugi bo‘yicha Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning hududlardagi faoliyatini tashkil etish konsepsiyasi ishlab chiqildi hamda proporsional tizim asosida saylangan deputatlar hududlarga biriktirilib, ularning saylovchilar bilan uzviy muloqoti yo‘lga qo‘yildi.

Xalq bilan muloqotning haqiqiy qiymati joylarda bildirilgan fikr-mulohazalar va muammolarning keyingi taqdirida namoyon bo‘ladi. Shu bois deputatlarning saylov okruglaridagi uchrashuvlari yakunlari dastlab siyosiy partiyalar fraksiyalarida, keyin Qonunchilik palatasi Kengashida ko‘rib chiqilmoqda. Har bir fraksiya joylarda aniqlangan masalalarni o‘z partiyasining dasturiy maqsadlaridan va elektorati manfaatlaridan kelib chiqib tahlil qilayotir va ularni hal etish bo‘yicha parlament nazorati shakllaridan unumli foydalanmoqda.

Keyingi yillarda deputatlar korpusining saylovchilar oldidagi mas’uliyati yanada oshirilib, saylov okruglaridagi ijtimoiy masalalarni hal etishdagi ishtiroki kengaytirildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan deputatlarga tashabbusli byudjet jarayonlari doirasida saylov okruglarida g‘olib bo‘lmagan loyihalar orasidan aholining kundalik hayotiga va hududni rivojlantirishga bevosita ta’sir qiladigan loyihalarni saylovchilar manfaatini inobatga olgan holda “Ochiq byudjet” axborot portalida tanlash, ularni g‘olib deb topish vakolati berildi.

Deputatlar joriy yilda ushbu vakolatdan ilk bor foydalanib, 150 ta loyihani tanlab oldi hamda qo‘shimcha g‘olib deb e’lon qildi.

Bundan tashqari, yetarlicha ovoz to‘play olmagan “Mening bog‘im” loyihalari hududning ekologik holati va sharoitlariga muvofiqligidan kelib chiqqan holda deputatlar tomonidan g‘olib deb e’lon qilinishi amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Bular deputat va saylovchi munosabatlariga yangi amaliy mazmun olib kirib, tashabbusli byudjet jarayonlaridagi xalq noiblarining rolini kuchaytirdi.

Fraksiyalar: g‘oyalar raqobati, elektorat manfaati va parlament mas’uliyati

Parlamentning kuchi faqat ko‘pchilik ovoz bilan belgilanmaydi. Uning haqiqiy qudrati jamiyatdagi turli qarashlar, manfaatlar va siyosiy dasturlarning ochiq muhokama qilinishi, o‘zaro raqobatga kirishishi va pirovardida xalq manfaatiga xizmat qiladigan eng maqbul qarorga aylanishida namoyon bo‘ladi. Parlamentda ana shunday siyosiy xilmaxillikni harakatga keltiradigan asosiy institut siyosiy partiyalar fraksiyalaridir.

So‘nggi paytlarda Qonunchilik palatasida qonun loyihalari muhokamasi bo‘yicha fraksiyalararo raqobat muhiti keskin kuchaydi. Parlament minbari chinakam bahs-munozara, prinsipial tortishuvlar maydoniga aylanib bormoqda. Bunda siyosiy partiyalar fraksiyalarining qiyofasi va pozitsiyasi namoyon bo‘lmoqda.

Masalan, 2020 – 2024-yillarda Qonunchilik palatasi majlislarida fraksiyalar bildirgan qat’iy pozitsiyalar va takliflarga asosan, 26 ta qonun loyihasi qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga, 35 ta qonun loyihasi esa qayta ishlanishi va ulardagi normalar yanada takomillashtirilishi uchun mas’ul qo‘mitalarga qaytarildi. Ushbu raqamlar fraksiyalarning qonun loyihalarini xalq manfaatidan kelib chiqqan holda ko‘rib chiqayotganini, parlamentdagi muhokamalarda fraksiyalararo raqobat keskin kuchayganini ifoda etadi.

Parlamentdagi bahs-munozaralar, g‘oya va qarashlar mushtarak partiyalarning fraksiyalari o‘rtasida yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zaruratini yuzaga keltirdi.

Shu bois quyi palatadagi O‘zLiDeP va “Milliy tiklanish” DP fraksiyasi tomonidan “Taraqqiyot bloki” tuzildi. Parlamentdagi ko‘pchilikni tashkil etuvchi ushbu blok ikki fraksiyaning sa’y-harakatlarini birlashtirish hamda o‘zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish orqali dasturiy maqsad va vazifalarini samarali amalga oshirish imkoniyatini kengaytirdi.

Partiya elektorati ovozini parlament va hukumatga yetkazish, ularning manfaatlarini samarali himoya qilish hamda mamlakatda kuchli ijtimoiy siyosatni davom ettirish maqsadida Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi o‘zini parlamentdagi muxolifat fraksiyasi, deb e’lon qildi.

Natijada fraksiyalar o‘rtasidagi g‘oyaviy kurashlar, konstruktiv bahs-munozara va o‘zaro raqobat muhiti yanada jonlandi. Eng muhimi, parlament tobora turli g‘oyalar erkin to‘qnashadigan, nuqtayi nazarlar ochiq ifodalanadigan haqiqiy siyosiy muloqot maydoni sifatida shakllanib bormoqda.

> *Ilgari parlament deganda, asosan, qonun loyihalarini ko‘rib chiqadigan va tasdiqlaydigan institut tushunilgan bo‘lsa, bugun u mutlaqo boshqa mazmunga ega bo‘ldi. Milliy parlamentimiz xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonch ko‘prigi, islohotlarning faol ishtirokchisi, ijro hokimiyati ustidan ta’sirchan nazorat olib boradigan, jamiyatdagi eng dolzarb masalalar ochiq muhokama qilinadigan milliy minbar, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, chinakam “Xalq uyi”ga aylandi.*

Qo‘mitalar – parlament faoliyatining professional tayanchi

Parlament minbarida yangraydigan har bir ma’ruza, o‘rtaga tashlanadigan har bir savol va ovozga qo‘yiladigan har bir qonun ortida katta tayyorgarlik, chuqur tahlil hamda qizg‘in professional muhokama turadi. Bu jarayonlarning asosiy qismi Qonunchilik palatasi qo‘mitalarida kechadi.

Keyingi yillarda qo‘mitalar faoliyati ham Yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlar sur’ati va mazmuniga mos ravishda tubdan yangilandi. Sog‘liqni saqlash, korrupsiyaga qarshi kurashish, sud-huquq, axborot texnologiyalari, tadbirkorlik, sanoat, fan-ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi jamiyat uchun g‘oyat dolzarb sohalar parlament qo‘mitalarining alohida e’tibor markaziga olindi. Ixtisoslashuv natijasida har bir qo‘mita o‘z sohasining parlamentdagi doimiy institutsional manziliga aylanmoqda.

Qo‘mitalar ishiga yangi institutlar va amaliyotlar, jumladan, davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish, byudjet mablag‘laridan foydalanish natijadorligini baholash, tematik uchrashuvlar o‘tkazish, Jamoatchilik kengashlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan tizimli hamkorlik qilish mexanizmlari joriy etildi.

Parlament va hukumat hamkorligining mutlaqo yangicha tizimi yo‘lga qo‘yildi. Vazirliklar, qo‘mitalar, agentliklar, inspeksiyalar va boshqa tashkilotlar Qonunchilik palatasining qo‘mitalariga biriktirilib, vazirliklar va idoralarning rahbar o‘rinbosari quyi palata qo‘mitalari bilan doimiy hamkorlik uchun mas’ul etib belgilandi. Bu mexanizm parlament va hukumat munosabatlarini faqat qonun loyihasi yuzasidan fikr almashishdan – muammoni birgalikda aniqlash, huquqiy yechim ishlab chiqish va uning amaldagi natijasini baholashga asoslangan doimiy muloqot darajasiga olib chiqdi.

Qonunchilik palatasi qo‘mitalariga Hukumat a’zolari hisobotlarini va davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish tashabbusi bilan chiqish huquqi berilganligi tegishli sohalardagi dolzarb masalalarni tezkor ravishda parlament nazoratiga olish imkoniyatini kengaytirdi.

Parlamentning kuchi: xalqning ishonchi va ochiqlik

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ochiqlik siyosati, keng ko‘lamli islohotlar va yangilanishlarga hamohang tarzda parlament faoliyatida ham ochiqlik hamda shaffoflik bosh mezonga aylandi.

Qonunchilik palatasi faoliyatining oshkoraligini ta’minlash maqsadida qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyatini, fraksiyalararo bahs-munozaralar hamda elektorat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan yondashuvlarni fuqarolarga jonli tarzda ko‘rsatish amaliyotiga o‘tildi.

Xususan, Qonunchilik palatasining barcha yalpi majlislari, “Hukumat soati” hamda parlament nazorati tadbirlari palataning rasmiy veb-sayti orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritilmoqda.

Ushbu amaliyot deputatlar korpusining qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil faoliyati to‘g‘risida xalqimizni o‘z vaqtida, ishonchli va tezkor tarzda xabardor qilish hamda parlamentdagi munozaralarni aholiga ochiq yetkazishga xizmat qilmoqda. Qolaversa, jonli efir orqali saylovchi o‘z vakilining faoliyatini bevosita kuzatib, unga xolis baho berish imkoniga ega bo‘ldi.

Parlament diplomatiyasi: milliy manfaat va xalqaro hamkorlik

So‘nggi yillarda mamlakatimiz global muloqotda o‘z mavqeini yanada mustahkamlagan holda xalqaro maydonga dadil kirib keldi. O‘zbekiston olib borayotgan ochiq, pragmatik va o‘zaro manfaatli tashqi siyosat Oliy Majlisning xalqaro aloqalarini ham yangi bosqichga olib chiqdi.

Yurtimizda nufuzli xalqaro parlament tadbirlari, xususan, 2025-yilda Toshkent shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi, Markaziy Osiyo davlatlari va Koreya Respublikasi parlamentlari rahbarlarining uchinchi yig‘ilishi hamda 2026-yilda Samarqand shahrida “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi parlamentlararo hamkorlik forumi kabilar yuqori saviyada o‘tkazildi. Bu tadbirlar mamlakatimizni turli mintaqalar o‘rtasida muloqot, ishonch va umumiy tashabbuslar shakllanadigan xalqaro maydon sifatida namoyon etdi.

O‘zbekistonning Parlamentlararo Ittifoq, YEXHT Parlament Assambleyasi, MDH Parlamentlararo Assambleyasi, Osiyo parlament assambleyasi, Turkiy davlatlar Parlament assambleyasi kabi xalqaro parlament tuzilmalaridagi faolligi oshdi.

Oliy Majlisning xorijiy mamlakatlar parlamentlari bilan hamkorlik bo‘yicha guruhlari parlamentlararo muloqotni yanada rivojlantirishning muhim instituti sanaladi. Ular nafaqat parlamentlar o‘rtasida tajriba almashmoqda, balki mamlakatimizning xalqaro tashabbuslari va milliy manfaatlarini ham faol ilgari surib kelmoqda. Qonunchilik palatasida 2015 – 2019-yillarda 27 ta parlamentlararo hamkorlik guruhi faoliyat olib borgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib ularning soni qariyb ikki yarim baravar oshib, 70 taga yetdi.

Parlamentlararo hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida do‘stlik guruhlarining vazifa va vakolatlari kengaytirilib, ularning maqomi oshirildi. Jumladan, Qozog‘iston Respublikasi parlamenti bilan Parlamentlararo hamkorlik kengashi, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi va Qirg‘iz Respublikasi parlamentlari bilan Parlamentlararo komissiyalar tuzildi.

Ta’kidlash joizki, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining keyingi o‘n yilligi milliy parlamentarizm tarixida tub yangilanishlar davri bo‘ldi. Bu jarayon parlamentning faqat tashkiliy tuzilishi yoki vakolatlari kengayishi bilan cheklanmadi. Eng katta o‘zgarish uning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rni, xalq oldidagi mas’uliyati hamda faoliyat natijalarini baholash mezonlarida yuz berdi.

Avvalo, parlament Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlarning chetdan kuzatuvchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylandi. Milliy parlamentimiz mamlakatdagi islohotlarning sur’ati va xalqchilligini qonunchilik hamda nazorat vakolatlari orqali ta’minlaydigan muhim siyosiy institut sifatida maydonga chiqdi.

Ayni paytda shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyo, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning rivojlanishi, yangi iqtisodiy munosabatlar, ekologik va ijtimoiy chaqiriqlar parlamentdan tezkorlik bilan birga uzoqni ko‘ra bilishni, siyosiy prinsipiallik bilan birga professional bilimni talab etmoqda.

Oldinda yanada ulug‘vor marralar, yanada mas’uliyatli sinovlar turibdi. Ishonchimiz komilki, xalq ishonchidan kuch olgan milliy parlamentimiz **yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratishdek ulug‘ maqsad** yo‘lida o‘z tarixiy vazifasini bundan buyon ham sharaf bilan ado etadi. Zero, xalq ishonchi – eng oliy mukofot, unga sadoqat bilan xizmat qilish – eng sharafli burch.

2027-yil 1-fevralgacha salohiyatli kichik va mikroGES loyihalarini aniqlash, amalga oshirish hamda ekspluatatsiya qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish va monitoring qilish maqsadida raqamli platforma ishlab chiqiladi.

ISTIQBOLNI KO‘ZLAYOTGAN QUTLUG‘ QADAMLAR



O‘zbekiston va Ozarbayjon munosabatlarining bugungi zamirida, avvalo, ikki xalqning tarixan qardoshligi, o‘zaro hurmat va ishonchi mujassam. Ayniqsa, so‘nggi yillarda Prezidentlar – Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyevning do‘stligi hamda o‘zaro ishonchi mamlakatlararo munosabatlarga yangi ruh va sur’at bag‘ishlaganini alohida ta’kidlash lozim. Bugun davlatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar strategik sheriklikdan ittifoqchilik darajasiga ko‘tarilgani ham ana shu siyosiy iroda va ishonchning amaliy natijasidir.

Kuni kecha Toshkentda imzolangan Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnoma esa munosabatlarimizning yangi tarixiy bosqichini belgilab berdi. Fikrimizcha, bu hujjat ikki davlat rahbarlarining bugungi avlod oldidagi emas, balki kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatini ham anglatadi. Zero, abadiy do‘stlik – bu shunchaki diplomatik ibora emas, balki uzoq muddatli ishonch va birdamlikning siyosiy ifodasi.

Ayni jarayonda parlamentlararo hamkorlikning o‘rnini alohida ta’kidlash joiz. Chunki parlamentlar – xalq irodasini ifoda etadigan institutlar. Davlat rahbarlari tomonidan erishilayotgan kelishuv va bitimlar xalqlar hayotida aniq natija berishi uchun ularning huquqiy asosi, ijrosi va jamoatchilik bilan muloqoti muhim. Va bunda parlamentlar va deputatlarning roli katta.

O‘zbekiston va Ozarbayjon parlamentlari o‘rtasidagi munosabatlar bugun aynan shunday ishonch va o‘zaro hurmat ruhida rivojlanmoqda. Aytish mumkinki, Oliy Majlis Senati va Ozarbayjon Milliy Majlisi o‘rtasidagi aloqalar ikki davlat o‘rtasidagi umumiy do‘stlikning muhim ustunlaridan sanaladi.

Biz parlament diplomatiyasi orqali bir-birimizning tajribamizni o‘rganish, qonun ijodkorligidagi yondashuvlarni muhokama qilish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni huquqiy

Munosabat

jihatdan ta’minlash borasida fikr almashish imkoniyatiga egamiz. Eng muhimi, bu muloqotlar faqat rasmiy uchrashuvlar bilan cheklanib qolmayapti. Deputatlar, parlament qo‘mitalari, do‘stlik guruhlari va turli darajadagi delegatsiyalar o‘rtasidagi aloqalar tobora kengayib borayotir. Bu esa mamlakatlarimiz parlamentlari o‘rtasida haqiqiy ishonch muhiti shakllanganidan dalolat beradi.

Bugun oldimizda turgan vazifalar qamrovi ancha keng. Investitsiya va sanoat kooperatsiyasi, transport-logistika, Transkaspiy yo‘lagi, ta’lim, madaniyat, turizm va boshqa sohalarda qabul qilinayotgan qarorlarning samarali amalga oshirilishida parlamentlararo muloqot ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Transkaspiy transport koridorini rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik faqat iqtisodiy masala emas.



U Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasidagi aloqalarni yanada kuchaytirish yo‘lidagi muhim qadam. Bunday yirik mintaqaviy loyihalar esa parlamentlar tomonidan ham doimiy e’tibor va qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston va Ozarbayjon parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlik yanada samarador bo‘lishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi madaniy yaqinlik ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy singari buyuk allomalarning merosi bizni bir-birimizga yanada yaqinlashtiradi. Parlament diplomatiyasi esa ana shu umumiy ma’naviy merosni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazishga o‘z hissasini qo‘shishi lozim.

Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev O‘zbekiston bilan munosabatlar so‘nggi yillarda misli ko‘rilmagan darajada rivojlanganini e’tirof etdi. Bu, bir tomondan, davlatlarimiz o‘rtasidagi ishonchning yuksak darajasini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, bizga parlamentlararo hamkorlikni ham ana shu darajaga olib chiqish mas’uliyatini yuklaydi.

Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnoma esa bu munosabatlarni uzoq yillarga mo‘ljallangan mustahkam asos bilan ta’minlab, keyingi o‘n yillikda O‘zbekiston – Ozarbayjon munosabatlari o‘zining eng yuksak siyosiy va institutsional bosqichiga chiqqanini anglatadi.

Bu jarayon parlamentlararo aloqalarda ko‘zga yanada yaqqol tashlanishi lozim. Chunki parlamentlararo muloqot xalqlar o‘rtasidagi iliqlikni, yaqinlikni mustahkamlaydi. Qonun ijodkorligi sohasidagi tajriba almashinuvi esa davlatlarimizning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Bugun biz kelajakdagi do‘stlik haqida gapirayotganimiz yo‘q, uni amalda quryapmiz. Bu davlat rahbarlari muloqotida ham, parlamentlar hamkorligida ham, xalqlarimizning o‘zaro munosabatida ham o‘zining aniq ifodasini topmoqda.

Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

SHARAFLI MEHNATNING YUKSAK E’TIROFI

Shu kunlarda eng ulug‘, eng aziz ayyom – Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi shukuhi yurtimizda barcha jabhada, xususan, odamlarimizning yuz-ko‘zi, qalbidagi quvonch va ko‘tarinki kayfiyatida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Qutlug‘ bayram arafasida Prezidentimizning qator farmonlariga muvofiq, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shayotgan, turli sohalarda samarali mehnat qilayotgan bir guruh yurtdoshlarimizning faxriy unvon, orden va medallar bilan taqdirlangani ushbu quvonchga quvonch qo‘shdi.

Bu ayni paytda Yangi O‘zbekistonda inson qadri, uning fidokorona mehnati va Vatan oldidagi xizmatlari yuksak e’tirof etilayotganining yana bir yorqin ifodasidir.

Quyida yuksak e’tirofga sazovor bo‘lgan yurtdoshlarimizning quvonch va hayajonga to‘la dil so‘zlarini havola etamiz.

Dil so‘zi

Kasbim bilan faxrlanaman

Kamol BOBANOV,
“Navoiyuran” davlat korxonasining “Nurobod” ishlab chiqarish maydoni “Sobirsoy” geotexnologik koni burg‘ilash qurilmasi mashinisti:



– “Shuhrat” medali bilan taqdirlanganim haqidagi xabardan nihoyatda hayajonga tushdim. Bu men uchun katta sharaf, ayni paytda zimmamga yuklangan yuksak mas’uliyatdir.

1997-yildan buyon kon-metallurgiya sohasida mehnat qilib kelaman. Mazkur kasb menga sabr-toqat, intizom, texnika xavfsizligiga qat’iy rioya qilish va har bir vazifaga yuksak mas’uliyat bilan yondashishni o‘rgatdi.

Ayniqsa, “Navoiyuran” davlat korxonasining “Nurobod” ishlab chiqarish maydoni “Sobirsoy” geotexnologik konida hamkasblarim bilan yelkama-yelka mehnat qilib, uran zaxiralarini o‘zlashtirish hamda yangi texnologik quduqlarni barpo etishga hissa qo‘shayotganimdan faxrlanaman. Brigadamiz bilan 2023-yilda 25 392 pogon metr, 2024-yilda 31 578 pogon metr, 2025-yilda esa 40 079 pogon metr burg‘ilash ko‘rsatkichiga erishdik. Bu natijalarda har bir hamkasbimning mehnati va hamjihatligi mujassam.

Shu bois mazkur yuksak davlat mukofotini nafaqat shaxsiy mehnatimga, balki ustozlarim, brigadamiz a’zolari va butun “Navoiyuran” jamoasining fidokorona mehnatiga bildirilgan e’tirof deb qabul qilaman. Bu baho menga yangi kuch va g‘ayrat bag‘ishlaydi. Bundan buyon ham bor tajribamni yoshlarga o‘rgatish, mehnat xavfsizligini ta’minlash va yurtimiz kon sanoati rivojiga munosib hissa qo‘shish yo‘lida sidqidildan mehnat qilaman.

Fidoyilikka rag‘bat

Shuhrat NEGMATOV,
“Nuroniy” jamg‘armasi Samarqand viloyati bo‘limi raisi, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi:



– Prezidentimizning farmoniga muvofiq, “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotlanganim beqiyos iftixor, quvonch va shukronalik hissini uyg‘otdi. Bu, avvalo, inson qadri va uning mehnatini ulug‘lash, yurt ravnaqi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shayotgan fidoyi insonlarga bo‘lgan e’tibor ifodasi bo‘lsa, o‘z navbatida, Yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” tamoyilining hayotimizda tobora chuqur qaror topayotganining namoyonidir, desak, ayni haqiqat.

Yurtimizda keksa avlod vakillariga, umuman, inson qadriga hech qachon bugungidek e’tibor bo‘lmagan. Shu bois ushbu jabhada mehnat qilayotganimdan, nuroniylarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun munosib sharoitlar yaratishdek ezgu ishlarga kamtarona hissa qo‘shayotganimdan benihoya baxtiyorman.

Nuroniylar – hayot maktabini bosib o‘tgan, boy tajriba va ibratli hayot yo‘liga ega, yosh avlod tarbiyasida beqiyos o‘rin tutuvchi insonlardir. Ularning duosi, nasihati va hayotiy tajribasi jamiyatimiz uchun katta ma’naviy boylik hisoblanadi. Shunday ekan, keksalarga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni nafaqat vazifa, balki insoniy burch deb bilaman.

Mukofot meni bundan buyon ham xalqimiz, xususan, keksa avlod vakillari manfaatlari yo‘lida yanada fidoyilik bilan mehnat qilishga undaydi. Buning uchun davlatimiz rahbariga, yurtdoshlarimizga va men bilan birga mehnat qilgan barcha hamkasblarimga chuqur minnatdorlik bildiraman.

“Xalq so‘zi”.

Senator va hayot

MAHALLALAR OBODLIGI – YURT FAROVONLIGI

Bandlikni ta’minlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash masalalari va ijtimoiy infratuzilma obyektlari faoliyatini o‘rganish, mahallalarda aholi bilan uchrashuvlar o‘tkazib, ularning muammolariga yechim izlash Oliy Majlis Senati a’zolari kun tartibining asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi.

Senatning Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi a’zosi Malika Qodirxonova boshchiligidagi ishchi guruh Toshkent viloyati Qibray tumanining Chinobod va Tinchlik mahallalarida bo‘lib, o‘rganishlar olib bordi.

Ishchi guruh tuman Vaziyatlar markazi faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Ayni chog‘da, mahallalardagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni monitoring qilish, aholi murojaatlari bilan ishlash va hududlardagi muammolarni tezkor hal etishga qaratilgan raqamli boshqaruv mexanizmlari ish jarayonini ham ko‘zdan kechirdi.

Shuningdek, bedanachilik va limonchilik bilan shug‘ullanayotgan xonadonlarda bo‘lib, o‘zini o‘zi band qilish, daromad manbalarini diversifikatsiyalash va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilindi.

Xususan, Dildora Oxunova xonadonida qariyb 3 600 ta bedana parvarishlamoqda. Bedanachilik orqali talab yuqori bo‘lgan tuxum va go‘sht mahsulotlari aholiga yetishtirib berilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini yanada kengaytirish maqsadida xonadon hovlisida issiqxona ham tashkil etilgan. Unda limon yetishtirilib, yil davomida mo‘l hosil olinyapti va sifatli mahsulotlar xaridorlarga yetkazib berilmoqda.

Bundan tashqari, “Mega Makon Tufting” gilam ishlab chiqarish korxonasi, xorijiy tillar, matematika hamda maktabgacha ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha mashg‘ulotlar olib boruvchi “EduLine” o‘quv markazi, qator oilaviy tadbirkorlik subyektlari va mebel jihozlari ishlab chiqarish hamda sotuvini amalga oshiruvchi ishbilarmonlar faoliyati bilan ham yaqindan tanishildi.

“Xalq so‘zi”.

DEMOKRATIK SAYLOVLAR – XALQ XOHISH-IRODASINING IFODASI

23-avgust kuni Qozog‘iston Respublikasi Qurultoyi deputatlari saylovi bo‘lib o‘tdi. Unda Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi Qutbiddin Burhonov MDH Parlamentlararo Assambleyasining xalqaro kuzatuvchilari missiyasi tarkibida ishtirok etdi.

Saylov

Senator Qozog‘istonda parlament sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayoni bilan yaqindan tanishdi va qator saylov uchastkalarida bo‘lib, ovoz berish jarayonini bevosita kuzatdi.

Kuzatuv davomida saylov komissiyalarining faoliyati, jarayonning belgilangan tartib-taomillarga muvofiq tashkil etilganiga, saylovchilar uchun, xususan, imkoniyati cheklangan fuqarolarning saylov huquqlarini amalga oshirishi uchun yaratilgan sharoitlarga alohida e’tibor qaratildi.

Aytish joizki, Qozog‘iston Respublikasi Qurultoyi deputatlari saylovi mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli konstitutsiyaviy va siyosiy islohotning muhim bosqichi hisoblanadi. Yangi bir palatali parlament modeli Qozog‘istonda siyosiy tizimni yanada takomillashtirishga, demokratik boshqaruvni mustahkamlashga, izchil islohotlarni qonunchilik jihatidan samarali ta’minlashga hamda mamlakatning barqaror va izchil taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari izchil rivojlanib, barcha sohalardagi hamkorlik yangi mazmun bilan boyib borayotgan bugungi sharoitda parlamentlararo muloqot alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi bir palatali parlament modeli – Qurultoyning shakllanishi O‘zbekiston va Qozog‘iston qonun chiqaruvchi organlari o‘rtasida samarali muloqotni yanada mustahkamlash, parlament faoliyati bo‘yicha tajriba almashish va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati ikki mamlakat parlamentlararo aloqalari bundan buyon ham izchil rivojlanishiga, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlanishiga ishonch bildiradi hamda Qozog‘iston Respublikasi Qurultoyining saylangan deputatlariga qonun ijodkorligi faoliyatida muvaffaqiyatlar, qardosh qozoq xalqiga esa tinchlik, farovonlik va barqaror taraqqiyot tilaydi.

DEPUTATLAR JONKUYARLIGI MUAMMOLAR YECHIMI DEMAK

Yurtimiz mahallalarida kambag‘allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish, ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish va ularning barqaror bandligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Tadbir

Urganch shahrida bo‘lib o‘tgan mahalliy Kengashlar deputatlarining hududlardagi faoliyatini samarali tashkil etish, aholi muammolarini manzilli o‘rganish va ularning yechimiga amaliy ko‘maklashish masalalariga bag‘ishlangan seminar-treningda ayni mavzuda fikrlashildi.

Unda Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Sayyora Abdikarimova, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mas’ul xodimlari, tegishli idora va tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Seminarda mehnat migratsiyasida bo‘lgan fuqarolarni yurtimizga qaytarish, ularni munosib ish bilan ta’minlash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda ehtiyojmand oilalarga amaliy yordam ko‘rsatish borasidagi ishlar ham tahlil qilindi.

Aholi murojaatlarini xonadonbay o‘rganish va aniqlangan muammolarni tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda hal etish muhimligi qayd etildi. Mahallalarda ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash hamda “mahalla yettiligi” bilan mahalliy Kengashlar deputatlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Seminar yakunida deputatlarning amaliy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, aholi muammolarini o‘z vaqtida aniqlash va ularning yechimiga ko‘maklashish, hududlarda bandlikni ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan vazifalar belgilab olindi.

“Xalq so‘zi”.

SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI – BARQAROR RIVOJLANISH OMILI

Tinchlik, adolat va samarali davlat boshqaruvi – mamlakat barqaror taraqqiyoti va davlat institutlariga jamoatchilik ishonchini ta’minlovchi o‘zaro uzviy omillardan sanaladi.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida ham ushbu masalalarga alohida o‘rin berilgan. Xususan, 16-maqsad – “Tinchlik, adolat va samarali institutlar” doirasida qonun ustuvorligini ta’minlash, barcha uchun odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, korrupsiya hamda poraxo‘rlikni qisqartirish, samarali, hisobdor va shaffof institutlarni shakllantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan.

Seminar

Oliy Majlis Senatida “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish oyligi” doirasida “Tinchlik, adolat va samarali davlat boshqaruvini ta’minlashning zamonaviy yondashuvlari” mavzuida o‘tkazilgan seminarda shu xususda so‘z bordi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizdagi islohotlar “inson – jamiyat – davlat” munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoyalash hamda davlat organlarining xalq oldidagi mas’uliyatini oshirishga qaratilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbari tomonidan taqdim qilingan “Odil sudlov – 2030” strategiyasi sud-huquq sohasini yanada takomillashtirishda muhim dasturiy hujjat ekani qayd etildi. Strategiyada 57 ta vazifa, 2026 – 2028-yillarga mo‘ljallangan 160 ta chora-tadbir va 2030-yilga qadar erishilishi lozim bo‘lgan 33 ta maqsad belgilangan.

Mazkur vazifalar sudlarni insonga yanada yaqinlashtirish, odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, sud jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda yagona sud amaliyotini shakllantirishga qaratilgan.

Ta’kidlanganidek, zamonaviy davlat boshqaruvida asosiy mezon qabul qilingan qarorlar yoki amalga oshirilgan tadbirlar soni emas, balki ularning aniq natijasi va inson hayotiga ta’siri bo‘lishi lozim. Shu bois davlat organlari faoliyatini baholashda fuqarolar muammolarining hal etilishi, ma’muriy to‘siqlarning qisqartirilishi, davlat mablag‘laridan samarali foydalanish va qaror qabul qilish jarayonlarining ochiqligi muhim mezon sifatida qaralishi zarur.

Korrupsiya, ekstremizm va poraxo‘rlik ko‘lamlarini qisqartirish masalalariga ham alohida urg‘u qaratildi. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy zarar, balki qonun ustuvorligi, adolat va davlat institutlariga ishonchga jiddiy tahdid ekani ta’kidlandi.

Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqbuzarliklarni aniqlash va jazolash bilan bir qatorda, korrupsiyaviy xavflarni barvaqt aniqlash hamda ularni keltirib chiqarayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga ustuvor ahamiyat qaratish zarur. Bunda ichki nazorat va komplayens tizimlarini kuchaytirish, korrupsiyaviy xavflarni baholash, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, davlat xaridlarining ochiqligini ta’minlash va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tadbirda BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi, davlat va ilmiy-ta’lim muassasalari vakillari ishtirokida Markaziy Osiyoda tinchlik, xavfsizlik, qonun ustuvorligi hamda samarali davlat boshqaruvini ta’minlashning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

“Xalq so‘zi”.

Mamlakatimizda sudyalar daromadlari va mulkini deklaratsiyalashga oid elektron tizim 2026-yil 1-sentabrga qadar ishga tushadi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 26-avgust

INSON KAPITALI — TARAQQIYOT KAFOLATI

Yigirmanchi asr o‘rtalariga qadar har bir mamlakatning qudrati uch omil – yer osti boyliklari, ishlab chiqarish salohiyati va moliya zaxiralari bilan o‘lchanardi. Biroq keyinchalik manzara tamomila o‘zgardi. Tabiat ushbu ne’matlar bilan siylamagan, mustamlaka yoki urush tinka-madorini quritgan Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya qisqa fursatlarda dunyoning eng boy va raqobatbardosh iqtisodiyotga ega davlatlari qatoriga kirdi. Tabiiy va mehnat resurslariga boy Afrika qit’asi aholisining to‘rtdan uch qismidan ko‘prog‘i esa hamon qashshoqlik botqog‘ida qolib ketmoqda. Nega?!

Nuqtai nazar

Aslida, mazkur paradoksni anglash qiyin emas. U tabiiy resurslardan odam botiniga e’tibor – “Inson kapitali” nazariyasi evolyutsiyasining amaldagi ifodasi, xolos. Mazkur nazariyaga ko‘ra bilim, ko‘nikma, tajriba va sog‘liq ishlab chiqarish omili emas, balki “investitsiya obyekti” sifatida belgilanadi. Ya’ni inson ilmu tafakkuriga yo‘naltirilgan mablag‘ – zavodga yoki yo‘lga sarflangan sarmoya kabi kelajakda daromad keltiruvchi manbaga aylanadi. Tabiiy resurs yoki pul – cheklangan va tugaydigan boylik. Inson kapitali esa to‘g‘ri yo‘naltirilsa, izchil ko‘payib atrofdagilarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan (sinergetik) zaxiradir.

Iqtisodiy samara mezonlari

Jahon banki “Inson kapitali indeksi” (HCI)ni ishlab chiqqan. Bu indeks sog‘liq va ta’lim ko‘rsatkichlarini birlashtirib, inson kapitalining darajasini ko‘rsatib beradi. Aytaylik, bugun tug‘ilgan bola mamlakatning amaldagi ta’lim va sog‘liqni saqlash sharoitlaridan bahramand holda 18 yoshga to‘lgunga qadar o‘z potensialining qancha foizini ro‘yobga chiqara olishi baholash indeksida 0 dan 1 gacha etib belgilangan. Unga ko‘ra, 0.6 ko‘rsatkichdagi ishchi, agar u to‘liq ta’lim olib, sog‘liqda mukammal bo‘lsa, salohiyatining atigi 60 foizini yuzaga chiqarishi mumkin. Qolgan 40 foizi – boy berilgan imkoniyat, yo‘qotilgan daromad, erishilmagan taraqqiyot.

So‘nggi yillarda 165 mamlakatda inson kapitaliga milliy boylikning tarkibiy qismi o‘laroq qaralib, u moliyaviy aktiv sifatida baholanmoqda. Inson kapitali yakka holda boylik yaratmaydi, balki boshqa barcha kapital turlarining (jismoniy, moliyaviy, tabiiy) samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Zero, eng zamonaviy texnologiya ham uni qo‘llay oladigan malakali kadr bo‘lmasa, o‘zini oqlamaydi. Shu bois inson kapitalini shakllantirish xarajat emas, jamg‘arma sifatida hisobga olinishi lozim. Ya’ni ta’lim va sog‘liqni saqlashga sarflangan mablag‘ – shunchaki byudjet yuki emas, balki uzoq muddatli daromad keltiruvchi aktivga qaratilgan investitsiya. Bu davlat siyosatining ritorikasida ham o‘z aksini topishi kerak. Va bunda yoshlar yoki universitet bitiruvchilari sonining qanchaligi ijobiy natijadan umidvor bo‘lish uchun yetarli emas. Hal qiluvchi omil – egallangan bilim va ko‘nikmaning real bozor ehtiyojlari va innovatsion jarayonlar bilan mosligida. Shuning uchun zamonaviy indekslar “Qancha o‘qigan?” degan savoldan ko‘ra, “Nimani o‘rgangan va uni amalda qo‘llay oladimi?” degan savolga javob berishga asoslanadi.

Shu o‘rinda maktab, universitet va shifoxonaga qancha ko‘p mablag‘ ajratilsa, inson kapitali shuncha o‘sadi, deb o‘ylash ham unchalik to‘g‘ri emasligini ta’kidlash joiz. Boisi xarajat va investitsiya bitta tushuncha emas. Xarajat – mablag‘ning sarflanishi, xolos. Agar u yuqori samaradorlik berishi kutilayotgan sohaga yo‘naltirilsa, investitsiyaga aylanadi. Misol uchun, maktab qurilsayu unda o‘qituvchi yetishmasa yoki o‘quv dasturi bozor ehtiyojidan uzilib qolsa, bu – investitsiya emas, xarajat bo‘lib qolaveradi.



Shunday ekan, inson kapitaliga yo‘naltirilgan mablag‘ning iqtisodiy samarasini qanday o‘lchash mumkin, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bunda “daromadlilik koeffitsiyenti” (rate of return) samaradorlikni baholashning birinchi mezoni hisoblanib, ta’limga sarflangan har bir qo‘shimcha yil, insonning kelajakdagi daromadini ma’lum foizga oshiradi. Agar ta’limga sarflangan mablag‘ning qaytimi bank foizidan yoki boshqa investitsiya turlaridan past bo‘lsa, resurslar noto‘g‘ri taqsimlanganini anglatadi.

Yana bir mezon – bozor bilan moslik (labor market absorption) bo‘yicha aniqlanib, unga ko‘ra diplom hali natija degani emas. Haqiqiy ko‘rsatkich – bitiruvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylasha oladimi va bu ish uning bilimiga mos daromad keltiradimi, degan savollar o‘rtaga chiqadi. Ko‘p mamlakatlarda, jumladan, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda “ta’lim inflyatsiyasi” deb nomlanuvchi hodisa kuzatiladi: diplomlar soni oshadi, lekin ular bozor ehtiyojiga mos kelmaydi – natijada yoshlar orasida “malakali ishsizlik” yuzaga keladi.

Uchinchi mezon – unumdorlikka ta’sir (productivity multiplier). Bu – makro darajadagi ko‘rsatkich: ta’lim va sog‘liq sifatining oshishi yalpi ichki mahsulot o‘sishiga qanchalik hissa qo‘shayotganini aniqlash. Bu yerda faqat “Qancha odam o‘qigan?” emas, balki “Ular qanchalik samarali ishlaydigan bo‘lib yetishdi?” degan savol markaziy o‘rinni egallaydi.

Va so‘nggi mezon – uzoq muddatli barqarorlik (sustainability and health outcomes). Sog‘liqni saqlashga kiritilgan investitsiyaning samarasi nafaqat kasallikning oldini olish, balki mehnatga layoqatli yoshdagi aholining faol ish yillari soni bilan ham o‘lchanadi. Sog‘lom, uzoq umr ko‘ruvchi va mehnat bozorida uzoq faol qoladigan aholi bu o‘z-o‘zidan iqtisodiy aktiv sanaladi.

O‘zbekistondagi holat

O‘zbekiston sharoitida nazariy mezonlarni amaliyotga ko‘chirganda bir necha aniq holatlarni e’tibordan qochirmaslik lozim. Jahon bankining yangilangan “Inson kapitali indeksi plyus” (HCI+) ko‘rsatkichlariga ko‘ra, respublikamiz 170 ball bilan 161 mamlakat orasida 42-o‘rinni egallagan. Bir qarashda unchalik xavotirli ko‘rsatkich emas. Biroq mehnat bozoridagi muvozanat boshqa bir tashvishli holatni ifoda etadi. Unga ko‘ra, rasmiy ishsizlik darajasi taxminan 6,3 foizni tashkil qilsa-da, to‘liq bo‘lmagan bandlik (underemployment) darajasi qariyb 9 foiz atrofida. Bu – rasmiy ravishda “ishlayotgan”, lekin o‘z malakasi yoki ish vaqtidan to‘liq foydalana olmayotgan katta guruh borligini ko‘rsatadi.

Mutaxassislik bo‘yicha bandlik darajasi – oliy ma’lumotli kadrlarning qanchasi o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ishlayapti, degan savolga javob beradi. Ta’lim tizimi bilan mehnat bozori o‘rtasidagi uzilishni o‘lchashning eng to‘g‘ri yo‘li shu. To‘liq bo‘lmagan bandlik (underemployment) darajasi esa rasmiy ishsizlik ko‘rsatkichi ortida yashiringan, malakadan to‘liq foydalanilmayotgan mehnat salohiyatini ochib beradi.

Qisqacha aytganda, inson kapitaliga investitsiyaning samarasini baholashda qurilgan maktab yoki chop etilgan diplomlar soni maqsad yo‘lidagi vosita, xolos. Haqiqiy mezon esa bu inson egallagan bilim va sog‘liqning iqtisodiyotda real daromad, unumdorlik va barqaror bandlikka aylanish darajasida o‘z aksini topadi. Shu bois mamlakatimiz rahbari ta’lim tizimini bozor ehtiyojlari bilan yaqinlashtirish va “rasmiy bandlik”dan “sifatli bandlik”ka o‘tishni rag‘batlantirishni O‘zbekiston uchun endilikda eng dolzarb vazifa sifatida belgiladi.

Zamin ostidagi raqamli kelajak

Yirik sanoat korxonalarining yuqori malakali mutaxassislarni ishga taklif etgan e’lonlariga tez-tez ko‘zimiz tushadi. Albatta, ular shunga yarasha ish haqi va amal pillapoyalaridan yuqorilashni ham va’da qilishadi. Biroq bunday e’lonlarning bir necha marta takrorlanishi ish beruvchida tanlash imkoniyati nihoyatda chegaralanganini aks ettiradi. Demak, yuqori malakali mutaxassisga talab bor, taklif – yo‘q. Birgina Navoiy viloyati misolida bunga o‘nlab misollar keltirish mumkin. Bu muammo ta’lim kreditlari va grantlar hamon mehnat bozorining real ehtiyojlari, ayniqsa, “STEM” va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi yuqori talablar mavjud sohalar bilan yetarlicha moslashtirilmaganidan dalolat.

Navoiy viloyatida oliy ta’lim oldiga qanday yangi talablar qo‘yilmoqda? Ushbu savolga javob berishdan oldin, hududning alohida tasnifiga e’tibor qaratish lozim. Viloyat O‘zbekiston iqtisodiyotida qimmatbaho xomashyo zaxiralari jamlangan hudud sanaladi. So‘nggi yillarda mashinasozlik, qurilish materiallari qatorida xorijiy sheriklikdagi qo‘shma sanoat loyihalari ham faol amalga oshirilmoqda. Xuddi shu jarayon – an’anaviy kon-metallurgiya kompleksining chuqurlashuvi hamda yangi texnologik tarmoqlarning paydo bo‘lishi – viloyatdagi oliy ta’lim zimmasiga bir vaqtning o‘zida turli xil, ba’zan bir-biriga zid ko‘rinadigan talablar qo‘yishi tabiiy.

Bir tomondan, kon-metallurgiya sanoatida murakkab iqlim va geologik sharoitda ishlash, gidrometallurgiya jarayonlarini boshqarish umumiy muhandislik bilimi bilan emas, balki chuqur ixtisoslashgan bilim bilan hal qilinadi. Ikkinchi tomondan, viloyatda kuzatilayotgan muhim tendensiya – import o‘rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishning kengayishi mahalliylashtirish uchun muhandislik quvvatini oshirishni talab qiladi. Bu yo‘nalish kengaygan sari, universitetlar oldida yangi vazifalar paydo bo‘ladi. Ya’ni faqat mavjud asbob-uskunani boshqara oladigan emas, balki uni loyihalashtira biladigan, takomillashtiradigan muhandislarni tayyorlash. Bu operator darajasidan konstruktor va texnolog mavqeiga o‘tishni anglatib, jiddiy sarmoya talab qiladi.

Yana bir talab raqamli transformatsiya va yangi kompetensiyalar bilan bog‘liq. Geologiya sohasidagi yirik korxonalarda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, geologik ma’lumotlar milliy bazasini yaratish va o‘n minglab hisobot hamda birlamchi ma’lumotlarni raqamli formatga o‘tkazish bo‘yicha boshlangan ishlar ertangi kon muhandisi yoki geologi endi faqat dalada ishlaydigan emas, balki raqamli modellashtirish va tahlil vositalarini qo‘llay oladigan mutaxassis bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, “tog‘-kon muhandisi” degan tushunchaning o‘zi kengayib bormoqda.

Bundan tashqari, xorijiy sheriklik bilan bog‘liq talab ham bor. Viloyatda xorijiy investorlar bilan qo‘shma sanoat loyihalarining ishga tushishi xalqaro standartlarda ishlay oladigan, texnik xorijiy tilni va zamonaviy sifat menejmenti tizimlarini biladigan kadrlarga ehtiyojni oshiradi. Chunki eksportbop mahsulot – xalqaro sifat va texnik standartlarga moslashuv demak.

Navoiy viloyati misoli shuni yaqqol ko‘rsatadiki, mintaqaviy universitet endi umumiy, “universal” ta’lim maskani bo‘libgina qolmay, u aniq sanoat tarmog‘ining ertangi ehtiyojini bugundan ko‘ra bilgan, tezkor ravishda dasturini moslashtira oladigan va ilmiy-texnik bazasini sohaning real texnologik darajasiga mos ravishda rivojlantiradigan dargohga aylanishi kerak. Inson kapitali nazariyasi nuqtayi nazaridan bu hududiy taraqqiyot strategiyasi bilan hududiy ta’lim strategiyasi bir hujjat, bir reja doirasida birgalikda loyihalashtirilishi kerak, degan xulosaga kelishga asos bo‘ladi.

Yangi davr – yangi talablar

Jahon iqtisodiy forumi hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha ishchi kuchining qariyb yarmi yaqin yillar ichida qayta malaka oshirishga ehtiyoj sezadi. Avtomatlashuv va raqamlashtirish, bir tomondan, ko‘nikmalarning eskirish sur’atini tezlashtirib, faoliyat davomida uzluksiz o‘rganish va kasb o‘zgartirishga ehtiyojni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, uzluksiz ta’limni ommaviy miqyosda qo‘llab-quvvatlashni ham taqozo etmoqda.

Zamonaviy universitetning asosiy vazifasi raqobatdangina iborat emas, balki komplementarlik ham. Albatta, bu universitet tayyor kasb egasini yetishtirishni batamom tark etishi kerak degani emas. Boisi jamiyatga har doim aniq, amaliy ko‘nikmaga ega shifokor, muhandis yoki huquqshunos zarur. Ammo universitet bitta kasbga tayyorlashdan umr davomida o‘zini yangilay oladigan o‘rganish qobiliyatining o‘zini shakllantirishga tomon siljishi shart. Bu, avvalo, asosiy (foundational) bilimni talab etadi. Fundamental bilim fanning o‘zgarmas negizi – matematik tafakkur, tanqidiy fikrlash, ilmiy metod, tizimli tahlil qobiliyati demak. Bu qatlam texnologiya qanchalik o‘zgarmasin, eskirmaydi – aksincha, u yangi texnologiyani tezroq o‘zlashtirishning poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Keyingisi amaliy (applied) ko‘nikma bo‘lib, aniq kasb doirasidagi, bugungi bozor talab etayotgan texnik kompetensiyalar. Bu qatlam, aksincha, tez eskiradi va doimiy yangilanishni taqozo qiladi.

Shu bois universitet dasturining yarmidan ko‘pi uzoq umr ko‘radigan poydevorga, qolgan qismi esa tez yangilanadigan, sanoat bilan hamkorlikda shakllanadigan amaliy modullarga qurilishi lozim. Bu tabiiyki, doimiy ravishda bozor konyunkturasi bilan “muloqot”ni kun tartibiga qo‘yadi. Aynan shu sabab sun’iy intellekt davrida universitet diplomiga endi “ta’lim yakuni” emas, balki umr bo‘yi davom etadigan o‘rganish yo‘lining “boshlang‘ich nuqtasi” sifatida qaralishi kerak. Universitetning asosiy qiymati – faqat bugungi kun uchun tayyor mutaxassis yetkazish emas, balki ertangi kun mavhumligida ham o‘zini qayta ta’lim olishga undaydigan, moslashuvchan va ishonchli inson kapitalini tayyorlashdir.

Modomiki, mamlakatimizda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan, bilim va texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotga o‘tish maqsad qilingan ekan, inson kapitalini sifat jihatdan yuksaltirish bir necha ustuvor yo‘nalishlarga diqqatni jamlashni taqozo etadi. Bu, avvalo, maktabgacha ta’lim va bolalar sog‘lig‘iga e’tibor qaratish, “STEM” va raqamli savodxonlikni ommalashtirish, ilm-fan va sanoat hamkorligini ta’minlash, uzluksiz ta’lim tizimini institutsionallashtirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash yoki xorijda tajriba orttirib kelishni yo‘lga qo‘yishni o‘z ichiga oladi.

> Biz inson kapitaliga shaxs darajasida, statik zaxira sifatida qarashga o‘rganib qolganmiz. Ammo qancha yil o‘qildi, qanday diplom olindi, degan me’yorlardan voz kechish fursati yetdi. Bu – faqat nazariy masala emas. Amaliy jihati shundaki, davlatning ta’lim siyosati “diplom berish” bilan chegaralanmaydi. Milliy inson kapitali strategiyasida faqat ta’lim va sog‘liq ko‘rsatkichlarigina emas, balki jamiyatdagi ishonch muhiti va odamlarning birgalikda ishlash madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar ham teng darajada ustuvor vazifa sifatida qaralishi kerak. Chunki oxir-oqibat, eng bilimli avlod ham, agar bir-biriga ishonmasa va birgalikda ishlay olmasa, o‘z salohiyatining faqat bir qisminigina milliy boylikka aylantira oladi.

Muhiddin KALONOV,
Navoiy davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SAMARQANDDA NUFUZLI MUSOBAQA

Shu yilning sentabr oyida qadimiy kentda Butunjahon shaxmat olimpiadasi va paralimpiadasi, shuningdek, Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE)ning kongress yig‘ilishlari bo‘lib o‘tadi.

Sport

Xalqaro nufuzli musobaqada 200 ga yaqin mamlakatlardan turli mutaxassislar hamda 2 ming nafardan ziyod shaxmatchilar qatnashishi kutilmoqda.

Samarqandda bunday nufuzli musobaqalarni o‘tkazish bo‘yicha tajriba bor, 2023-yilda bu yerda shaxmatning blis va rapid bo‘yicha VI jahon chempionati yuqori darajada uyushtirilgan. O‘tgan yili “FIDE Grand Swiss” va “FIDE Women‘s Grand Swiss” xalqaro turnirlarini qabul qilgan. Bunday yirik musobaqalarni uyushqoqlik bilan tashkil etgani uchun FIDE tashkiloti 46-butunjahon shaxmat olimpiadasini Samarqand shahriga ishonib topshirdi.

– Musobaqaning asosiy bahslari “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro turizm markazida o‘tkaziladi, – deydi O‘zbekiston shaxmat federatsiyasining Samarqand viloyati hududiy bo‘limi ijrochi direktori Ilhom Ergashev. – Olimpiadani yuqori sur’atda tashkil qilish uchun maxsus ishchi guruh tuzilgan va u FIDE bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan maxsus reja asosida faoliyat yuritadi. Tadbir davomida asosiy e’tibor logistika va xavfsizlik masalalariga qaratiladi, shuningdek, delegatsiya vakillari, ishtirokchilar va hakamlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Butunjahon shaxmat paralimpiadasi 10 – 18-sentabr kunlari o‘tkazilsa, 15-sentabrdan 27-sentabrga qadar Butunjahon shaxmat olimpiadasi bellashuvlari tashkil etiladi. Shuningdek, musobaqa doirasida FIDEning Bosh assambleyasi o‘tkaziladi va unda tashkilotning yangi prezidentini tayinlash masalasi ko‘rib chiqiladi.

Kuni kecha 46-shaxmat olimpiadasiga bag‘ishlangan matbuot anjumanida ma’lum qilinganidek, musobaqa 11 raundlik shveysarcha tizimda bo‘lib o‘tadi. “Open” va “Ayollar” guruhida ishtirok etadigan jamoalar 4



nafar o‘yinchi va bir nafar zaxira o‘yinchilaridan tashkil topadi. O‘yinlar FIDE tomonidan tasdiqlangan elektron soatlar va doskalar yordamida o‘tkaziladi. Bahsdagi birinchi 40 ta yurish uchun 90 daqiqa, so‘ngra o‘yinning qolgan qismi uchun 30 daqiqa, 1-yurishdan boshlab har bir yurish uchun 30 sekund vaqt qo‘shib boriladi.

Sunnatilla ISLOMOV
(“Xalq so‘zi”).

Islom sivilizatsiyasi:

YANGI NIGOH – YANGI KASHFIYOTLAR

Bugun global axborot makonida mamlakatlar nufuzi faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar yoki siyosiy tashabbuslar bilan emas, balki o‘z tarixi, madaniyati va ma’naviy merosini dunyoga qay darajada ta’sirchan va zamonaviy tilda yetkaza olishi bilan ham belgilanmoqda.



Forum

Shu ma’noda, 25-avgust kuni Toshkentda ish boshlagan “Islom sivilizatsiyasi: yangi nigoh – yangi kashfiyotlar” xalqaro mediaforumi O‘zbekistonning boy ilmiy-ma’rifiy merosini jahon axborot maydoniga olib chiqish yo‘lidagi muhim qadam sifatida ahamiyatlidir.

Forumning ochilish marosimi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida bo‘lib o‘tdi.

Mazkur anjuman mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi arafasida o‘tkazilayotganida ham ramziy ma’no bor. Zero, mustaqil taraqqiyot yillarida, ayniqsa, so‘nggi yillarda yurtimizda milliy va umuminsoniy merosni asrab-avaylash, uni ilmiy asosda o‘rganish, buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini xalqaro miqyosda targ‘ib etish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ana shu ezgu maqsadlarning amaliy ifodalaridan biriga aylanmoqda.

Ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Kommunikatsiyalar departamenti boshlig‘i – Prezident matbuot kotibi Sherzod Asadov forum ishtirokchilarini qutlab, zamonaviy mediamakonida ommaviy axborot vositalari zimmasiga yuklanayotgan mas’uliyat xususida fikr bildirdi.

Tadbirning e’tiborli chiqishlaridan biri “Euronews” bosh direktori va tahririyat direktori Klaus Shtrunsning ma’ruzasi bo‘ldi.

– Bugungi axborot makonida jurnalistlarning bir-biri bilan uchrashishi va hamkorlik qilishi kelajakni mas’uliyat bilan shakllantirishning muhim sharti, – dedi u. – Yevropa va Markaziy Osiyo o‘rtasida madaniyat, g‘oya va axborot almashinuvini kuchaytirish uchun zamonaviy media yangi ko‘prik vazifasini bajarishi mumkin. Shunday ekan, biz uchun jurnalistika shunchaki biznes yoki kasb emas, avvalo, burch, mas’uliyat va ezgulikka da’vat bo‘lishi kerak.

Anjumanda mamlakatimizning tegishli vazirlik va idoralari, nufuzli ommaviy axborot vositalarining rahbarlari va jurnalistlari ham faol ishtirok etmoqda. Xalqaro forum o‘zaro tajriba almashish, axborot makonida ilg‘or yangiliklarni keng joriy qilishda muhim o‘rin tutmoqda.

– Davlatimiz rahbarining g‘oya va tashabbusi bilan tashkil etilgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bugungi kunda Yangi O‘zbekistonning ma’rifiy timsoliga aylanmoqda, – dedi markaz direktori Firdavs Abduxoliqov. – Bu borada ommaviy axborot vositalarining kuch va imkoniyatlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Tarix muzey vitrinalarida qolib ketmasligi, kelajak avlodlar uchun yangi bilim, g‘oya va kashfiyotlar manbaiga aylanishi kerak. Buning uchun tarixni o‘rganish bilan bir qatorda, uning mazmun-mohiyatini dunyo auditoriyasi tushunadigan zamonaviy media tilida yetkazish talab etiladi. Bugun tarixni bilishning o‘zi yetarli emas, uni so‘zlatish kerak. Ajdodlar merosi kelajak avlod bilan muloqot qilishi, yoshlarni yangi bilim va kashfiyotlarga ruhlantirishi lozim. Bu yo‘lda televideniye, kino, nashriyot, raqamli platformalar va zamonaviy texnologiyalarning imkoniyati nihoyatda katta.

Markazning “Euronews”, “BBC” va boshqa xalqaro mediakompaniyalar bilan hamkorlikda O‘zbekiston tarixi, madaniyati va ilmiy merosiga bag‘ishlangan yangi loyihalar ustida ishlayotgani qayd etildi. Bu hamkorlik natijasida yangi hujjatli filmlar, teledasturlar, maxsus medialoyihalar, shuningdek, jurnalistlar, olimlar va madaniyat muassasalari vakillarini birlashtiradigan qo‘shma tashabbuslar yuzaga chiqishi kutilmoqda.

Tadbir doirasida xalqaro mediaforumga bag‘ishlangan maxsus esdalik pochta markalarini so‘ndirish marosimi ham bo‘lib o‘tdi.

Mazkur anjuman dunyoning 50 ga yaqin mamlakatlaridan yuzlab mutaxassislarni birlashtirmoqda. Ular orasida yetakchi mediakompaniyalar rahbarlari, axborot agentliklari va telekanallar vakillari, xalqaro nashrlar jurnalistlari, hujjatli film ijodkorlari, prodyuserlar, olimlar, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt bo‘yicha mutaxassislar bor. “CNN” va “Euronews” forumning asosiy xalqaro mediahamkorlari sifatida ishtirok etmoqda. Bu esa O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida amalga oshirilayotgan loyihalar va mamlakatimizning boy tarixiy-madaniy merosini yanada keng global auditoriyaga taqdim qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Toshkentda boshlangan muloqot Samarqandda davom etadi. Xalqaro mediaforum joriy yilning 28-avgustiga qadar o‘tkaziladi.

“Xalq so‘zi”.

2026/2027 o‘quv yilidan boshlab kichik quvvatli “yashil” energiya yo‘nalishlari, jumladan, kichik gidroenergetika uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tashkilotlarida dual ta’lim tizimi asosida joriy etiladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Aliqulov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni – 23.45 Topshirildi – 00.10 1 2 3 4 5 6